

SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY RUBOIYLARIDA BADIY  
SAN'ATLAR TAHLILI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7703475>



ELSEVIER



Foundation of Advanced Research & Scholar's

Received: 06-03-2023

Accepted: 07-03-2023

Published: 22-03-2023

Abstract:

Keywords:

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Qadim-qadimdan o'zining boy madaniy-ma'naviy merosiga ega bo'lgan Surxon vohasi bugungi kunga kelib, badiiy adabiyotda ham estafetaning oldingi safida odimlab bormoqda. Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Sirojiddin Sayyid, Usmon Azim, Erkin Azam kabi adabiyot darg'alarini bag'rida ulg'aytirgan Surxon diyori yana bir kamtarin inson, donishmand shoir, chehrasida Termiziylar nafasi ufurib turgan alloma Shafolat Rahmatullo Termiziyini adabiyotimiz ixlosmandlariga taqdim etdi.

Baxshilar avlodidan bo'lgan Shafolat Rahmatullo Termiziy boshqa ijodkorlardan farqli ravishda adabiyot ostonasiga o'zining didaktik g'oyalar bilan yo'g'rilgan, sassiz va jarangdor she'rlari bilan kirib kelgan edi. Mahmud Abulfayz tili bilan aytganda "adabiyotimiz Suqroti" bo'lgan shoirning nazm bo'stoniga qadam qo'ygan har bir kitobxon zamonaviy turfa gullar bilan birga mumtoz ohanglardan zavq olib ifor taratayotgan g'azal, ruboiy, tuyuq, muxammas kabi bir talay nafis va jozibador gullarga ham ko'zi tushadi. Lekin ular hamon g'uncha holida yoki shoirning o'zi kabi ko'rinmay gullaydi. Bu gullarning ham botiniy, ham zohiriy go'zalligidan bahramand bo'lish har bir she'riyat muxlisining o'z aql-idroki, teran tanqidiy qarashlari va tafakkur xazinasining boy imkoniyatlariga havola.

Shu nuqtai nazardan shoirning "Hayyom sharobi"<sup>40</sup> bilan sug'orilgan, hikmat sehri bilan o'g'itlangan ruboiylariga diqqatimizni qaratsak. Bu ruboiylarda she'riy san'atlarning ham ma'naviy( tashbeh, talmeh, tashxis, intoq, mubolag'a, savol-u javob, ittifoq, taqdir, kalomi jome v. h.), ham lafziy( tanosub, tazod, tajnis, iltizom, tasdir, hojib, muzoraa (tazmini muzdavaj), qaytariq, ta'did, takrir, insho v. h.) san'atlari hamda har ikki turni omuxtalashtirgan ma'naviy-lafziy san'atlar o'rin olgan. Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik

<sup>40</sup> Shoir 1968-1998-yillar mobaynida yozgan ruboiylariga "Hayyom sharobi" deya nom bergan.

timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shafoat Rahmatullo Termiziy ruboiylarida qo'llangan she'riy san'atlar ham bundan mustasno emas. Jumladan, shoir "Ijod to'lg'og'i" nomli ruboiysiga tashbeh, intoq, tazod va savol-u javob san'atlari bilan sayqal bergan.

Sukuting tavsifin ayt, Pomir tog'i,  
Sen ham notinchliging, Surxon irmog'i.  
Tog' aytur: - "Sukutim shoir o'yiday" ,  
Daryo der: - "Tashvishim - ijod to'lg'og'i".

Shoir tog'ning doimiy sukutini o'zining o'y-xayollarga cho'ngandagi holatiga, daryo irmog'ining tinchsizlanib, shovqinli oqishini ijodining to'lg'oq tutgan vaqtiga, ya'ni qalbida qaynar buloqdek otilib chiqayotgan satrlarni qog'ozga tushirmasa bo'lmaydigan bir holatiga qiyoslab, ajoyib tashbeh yaratadi. Tog'ning sukuti va daryo irmog'ining notinch holatini shoirning so'ngi ikki misrada aks etgan holatiga qiyoslash orqali sukut va notinchlik o'rtasida o'zaro qarama-qarshilik (tazod san'ati)ni vujudga keltirgan.

Odandan boshqa jonli va jonsiz narsalarni so'zlatishga - intoq san'ati deyiladi. Intoq (arabcha) "so'zlatish", "gapirtirish" demakdir. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlar insonlar kabi gapirsa, Ahmadiyning "Soz munozarasi" da musiqiy asboblilar tilga kiradi. Shafoat Rahmatullo Termiziyning yuqoridagi ruboiysida tog' va daryo tilga kiradi va shoirning dastlabki baytdagi so'rog'iga, so'nggi baytda javob qaytarishadi. Shoirning tog' va daryo bilan bo'lgan qisqagina savol-javob tarzidagi suhbatida asosida yana bir ma'naviy san'at (savol-u javob san'ati) yuzaga kelgan.

Shafoat Rahmatullo Termiziyning poetik mahorati shundaki, u so'zni tejaydi. Oddiy, sodda, jaydari so'zlardan ajoyib misralar, takrorlanmas baytlar yaratadi. Maqtovga arzirli jihati shoirning bir ruboiysida uch, to'rttagacha she'riy san'atlarni uchratish mumkin. Bu esa ruboiyning estetik go'zalligiga, ilgari surilgan g'oyaning badiiy mahoratiga salbiy ta'sir etmaydi. Aksincha, yanada yorqinroq aks etishini ta'minlaydi. Masalan, shoirning "U qizning" nomli ruboiysida:

U qizning labida bir zumlik kulgu,  
U qizning qalbida noma'lum tuyg'u.  
Sevgi qo'shiqlarin tinglasa nechun  
U qizning ko'zida ming yillik qayg'u.

Sevgi deb atalmish maftunkor tuyg'uning qalb saroyiga mehmon bo'lib kelishi va bu mehmon qisqagina visol onlari-yu, bir umrlik hajr azoblarini taqdim etganda, taqdir tortiqlaridan jabrlanayotgan mezbon qizning holati tasvirlangan. Ruboiyda

inson a'zolari bilan bog'liq: lab, qalb, ko'z so'zlari orqali tanosub san'atini, qofiyadosh so'zlarda (tuyg'u, qayg'u) tajnisni, ilk misradagi "u qizning" so'zini ikkinchi va to'rtinchi misrada takror keltirish bilan iltizom san'atini qo'llagan shoir lab va kulgu, qalb va tuyg'u, ko'z va qayg'u so'zlari o'rtasidagi bog'liqlikdan unumli foydalanib, asarning ta'sirchanlik darajasini bir oncha yuqori pog'onaga ko'targan.

Shafoat Rahmatullo Termiziy ruboiylarida ko'plab uchratish mumkin bo'lgan she'riy san'atlardan biri tanosubdir. Tanosub – she'r baytlarida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'atidir. Lutfiy qalamiga mansub

Sen husn ila boysan, senga chun farz erur haj,  
Qil tengri uchun Kabai ko'nglumni ziyorat.

Baytida haj voqeasi bilan aloqador tushunchalarni bildiruvchi haj, farz, tengri, Kaba, ziyorat so'zlarining bir o'rinda keltirilishi shoirga oshiq va mahbuba munosabatlarini ta'sirchan ifodalashga yordam bergan.

Shafoat Rahmatullo Termiziy quyidagi ruboiysida:

(Ajab)  
Suxan tabobatin o'rgandim-u sal,  
Har qalb bemorida sinadim avval.  
Ajabkim bul maning aytgan so'z-dorim,  
Kimga shifo qildi, kimlarni kasal.

Tabobat, bemor, dori, shifo, kasal so'zlari orqali ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalar (tanosub)ni qo'llash bilan so'zning qudratini ajoyib tashbehtar yordamida ta'sirchan va mushohadali satrlarda aks ettirgan. Shu o'rinda ushbu ruboiyni o'zbek xalq maqollaridan biri "Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i" maqolining qisman bo'lsada she'rdagi ifodasi sifatida baholash mumkin. So'ngi misrada shoir "kimga shifo qildi, kimlarni kasal" deya bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki so'z-tazodni (shifo va kasal) keltiradi.

Bundan anglashiladiki, Shafoat Rahmatullo Termiziy tazodlarining salmog'i, uning ruboiydagi badiiy ahamiyati ancha yuqori. Jumladan, shoir bir ruboiysida "uzun" va "qisqa" tazodlarini qo'llab, inson umrining mazmuni va mohiyati nimadan iborat ekanligi to'g'risidagi ulug'vor g'oyani to'rt satrda ifodalaydi. Ayniqsa, so'ngi misrada "uzun" va "qisqa" tazodlari asosida qo'llangan tardu aks(ar. – quvmoq, teskari qilmoq, teskari qilib takrorlash) san'ati ruboiydan anglashilgan g'oyani ochib beruvchi asosiy kalit vazifasini bajargan.

(Umrning mazmuni)  
Ikkisi umrga yasadi yakun,  
U qisqa yashadi, bu esa uzun.  
Umrning mazmuni o'lchangan kuni  
Uzun-qisqa bo'ldi, qisqa-chi uzun.

Inson umri poyoniga yetib, bu yorug' olamni tark etar ekan, uning qancha emas, qanday yashaganligiga qarab umrining mazmuni o'lchanadi, baholanadi. Shunday odamlar borki, o'zining qisqagina umrida ham ulkan ishlarni qilib ketadi, yana shunday insonlar borki, yuz yillab umr ko'rsa ham bu dunyodan nom nishonsiz o'tib ketadi. Bu rad etib bo'lmaydigan hayot haqiqati. Bu haqiqatni anglab yetgan Shafolat Rahmatullo Termiziy ham o'z ruboiylarida Alloh tomonidan qarzga berilgan umrni ilm olib, halol mehnat qilib, aql-zakovatini, kuch qudratini faqat ezgu ishlarni amalga oshirish uchun sarflagan holda umr guzaronlik qilishga chorlaydi. Masalan, shoirning kalome jome san'ati bilan sayqallangan quyidagi ruboiysini ham yuqoridagi fikrlarimizning isbot-dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

Har maqsad yurtiga yoshlikdan och jang,  
U seniki g'ayrat tug'in ko'tarsang.  
Jiming doni yerga kirmasdan shoshil,  
Urug' emassanki, ko'mgach ko'karsang.

Mumtoz adabiyotda hojib (ar. - parda, yopuvchi, berkituvchi)- deb nomlangan shunday bir san'at borki, bu san'atning mohiyatini anglab yetish uchun gapni qofiya va radifdan boshlashga to'g'ri keladi. Radif qofiyadan so'ng takrorlanib keluvchi so'z, so'z birikmasi yoxud gap bo'lsa, hojib esa qofiyadan oldin takrorlanib keluvchi so'z va so'zlardir. Shafolat Rahmatullo Termiziyning quyidagi ruboiysida "voz kechib" so'zi hojib hisoblanadi.

Toatdan voz kechib bangi bo'lding, sen,  
Hayodan voz kechib hangi bo'lding, sen.  
O'tmishdan voz kechib yangi bo'lding, sen  
Va bori ulusning changi bo'lding, sen.

Darhaqiqat, toatdan voz kechgan inson borib-borib og'ufurush bangiga aylanib, or-nomusni, ibo-hayoni ham unutishi va hayvonsifat jirkanch bir maxluqqa aylanib qolishi tabiiydir. Bu maxluqlar (shoir tili bilan aytganda

“hangilar”) o‘z o‘tmishidan, qadimiy urf- odatlaridan, ota-bobolari qoldirib ketgan ulkan madaniy va ma‘naviy merosdan voz kechib, o‘zlarini yangi tug‘ilgan chaqaloqdek pok va yangicha davrda yangicha uslub bilan yashayotgan shaxs sifatida baholashadi. Aslida esa ular mehribon, mehnatsevar, o‘z oldiga ulug‘ maqsadlar qo‘ya olgan dono va tanti yurtdoshlarimiz oldida to‘zg‘ib to‘zg‘iyolmayotgan, tinib tinchiyolmayotgan, eng achinarlisi hayotdan aniq maqsadi bo‘lmagan bugungi kunning zamonaviy manqurtlaridir. Shoir Shafolat Rahmatullo Termiziy bu kabi manqurtlarga qarata oxir-oqibat butun bir o‘zbek ulusining changi bo‘lib qolding deya xitob qiladi.

Shafolat Rahmatullo Termiziy ruboiylariga badiiy bezak berishda insho san‘atining ham munosib o‘rni bor. She‘rdagi ifoda usullarini anglatuvchi bu san‘at tamanni, nido, istifhom, amr va nahiy degan to‘rt usulni o‘z ichiga oladi. Shoir ruboiylarida bu usullarning betakror namunasini yaratgan. Jumladan, "orzu qilish" ma‘nosini anglatuvchi tamanni usuli – she‘rda lirik qahramonning u yoki bu tilagi, tamannosini ifodalashni nazarda tutadi. Shoirning

Shu qizning labiday chechak istayman,  
Shu qiz siynasiday pechak istayman.  
Oy yuzli shu dilbar yonimda bo'lsa,  
Sochlariday uzun kecha istayman.

yoki

Oppoq bulutlatlardan belanchak qilsam,  
Hilol ipagidan halinchak qilsam.  
Bobotog‘ kelbatli kuyov bo‘lsam-u,  
Bahorni o‘zimga kelinchak qilsam.

kabi ruboiylarini tamannining yorqin namunasi sifatida baholash mumkin. Tamannidan tashqari tajnis, tanosub, tashbeh san‘atlari qo‘llangan dastlabki ruboiyda shoir zohiran o‘z orzu istaklarini bayon etgan bo‘lsada, botinda mashuqasining tengsiz sifatlarini vasf etib, yorning labini chechakka, siynasini pechakka, yuzini oyga, qop-qora uzun sochlarini esa qorong‘u kechaga mengzaydi. Har ikkala ruboiyda ham mubolag‘aviy tasvirning ustunligi tamanni san‘atining ta‘sir kuchini yanada oshirgan. Ayniqsa, bu hol ikkinchi ruboiyda yaqqol namoyon bo‘lgan.

She‘riyatimizda juda keng qo‘llangan nido (qichqiriq, chaqiriq, undov) usuli lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o‘zining ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, tilaklari, mulohazalarini bayon qilishini nazarda tutadi. Soddaroq qilib aytganda she‘rda undalma qo‘llash usulidir.

Shafoat Rahmatullo Termiziy bir ruboiysida haqir, muslim, mo'min, zolim insonlarga xitob qilib, ularga nisbatan shunday bashorat qiladi:

Ey haqir, haqiqat otang bo'lajak,  
Ey muslim, zurriyoding hotam bo'lajak.  
Ey mo'min, sen hamon man-manga muhtoj,  
Ey zolim, shavkating motam bo'lajak.

Boshqa bir ruboiysida Ollohga qarata, meni jannat yoki do'zaxga topshir deya xitob qiladi. Sababki, shoir bu foniy dunyoning jangi hasharidan, qilar ishi faqat zolimlik bo'lgan jafokor insonlaridan ketmoqda. Endi u arosatda yashashni istamaydi.

Men bu hayot - jangi hashardan ketayabman,  
Bu jafokor bani bashardan ketayabman.  
Xudoyo, jannat yo do'zaxga topshir meni  
Endi arosat yashardan ketayabman.

Shafoat Rahmatullo Termiziy ruboiylarida eng salmoqli hisoblangan insho usuli bu- amr va nahiydir. Amr va nahiy usuli "buyurish va man qilish" ma'nosini ifodalab, she'rda lirik qahramonning kimgadir yoki nimagadir buyurish yo biron narsadan qaytarish tarzida o'z ichki kechinmalarini bayon etishini nazarda tutadi. Amr va nahiy bilan kalomi jome san'ati qorishiq qo'llanadi. Masalan, shoirning

Hamisha bad ishdan qo'l silta, ko'z yum,  
Yaxshilik otangdan, bobongdan udum.  
Bahorda sochilgan siqim donga boq,  
Kuzga kelib bo'ldi bir qop-u bir xum.

Zararli illatlardan, noaxloq xatti-harakatlardan, yomon ishlardan qo'l siltagan holda ota bobolarimizdan asrlar osha azaliy udum bo'lib kelayotgan ezgu amal, ezgu fikr va ezgu so'zni shior qilib olishga davat(amr) qiladi, undaydi. Ushbu ruboiyda shoir birinchi baytdagi fikrga, ikkinchi baytda hayotiy bir hodisani, ya'ni yerga yaxshi niyat bilan sepilgan bir siqim don vaqti kelib bir qopdan ham ortiq hosil berishini misol tariqasida keltirish bilan yana bir ma'naviy san'at tamsilni qo'llaydi. Shafoat Rahmatullo Termiziyning quyidagi ruboiysida esa nahiy, ya'ni qaytarish mazmuni aks etgan.

Endi yaxshilaring otib tugatma,  
Mulk-u merosingni sotib tugatma.  
Ajdodlar pok tutgan shon, g'ururingni

Agar Shafolat Rahmatullo Termiziy ruboiylarini diqqat bilan tahlil qiladigan bo'lsak, anglashiladiki, shoir ruboiylarining asosini didaktik mazmun-o'git, pand-nasihat(amr va nahiy hamda kalomi jome san'atlari) tashkil qiladi. Faqat ularni qunt bilan o'rganib, chuqur mulohaza qilib, keng ommaga va yosh adabiyot ixlosmandlariga targ'ib qilishimiz lozim. Kamina ham mana shu ezgu yo'lda birinchi qadamni shoir ruboiylaridagi badiiy san'atlarni o'z aql-idroki, adabiyotga chanqoq qalbi va tafakkur imkoniyatlariga tayangan holda tashladi. Ammo shoir ruboiylarida biz anglab yetmagan badiiy san'atlarning nozik turlari hamda she'riyatgagina xos bo'lgan tasviriy bo'yoqlar, badiiy go'zalliklar talaygina. Bundan tashqari Shafolat Rahmatullo Termiziyning nazm bog'ida ko'pdan ko'p ibratli she'riy asarlar o'z muxlislarini, yetuk tanqidchi-yu tirishqoq targ'ibotchilarini kutib turibdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiyat malohati. - T.;Sharq, 1998.
2. Shafolat Rahmatullo Termiziy. "Ozod so'z". "Yangi asr avlodi", 2003-y.